

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakul`teti

«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta`lim yo`nalishi 4 “d” guruh

Kaypanova Fatima

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Oilada bola tarbiyasi

Qabullagan:

R.Aleuova



NUKUS - 2015

Mundarija:

Kirish.

I-bob. Sog`lom bolaning shakllanishida ota-onalarning vazifalari .

I.1. Sog`lom bola ma`naviyatini shakllanishiga ta`sir etuvchi omillar.

I.2. Sog`lom bola tarbiyasida ota-onaning roli.

II-bob. Oilada farzand tarbiyasiga qo`yiladigan zarur talablar.

II.1. Ota-onaning va farzandlarining oiladagi forizi haqida.

II.2. Oilada Vatanparvarlik sezimlarini tarbiyalash masalalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Kurs ishining dolzarbligi: Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo`q. Shu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. "Shuni unutmaslik kerakki, - deydi Yurtboshimiz I.Karimov, - kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"¹. Zero ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi yoshlarda bilim egallash bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, demokratik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Axborot oqimi kuchaygan, globallashib borayotgan dunyoda voyaga etmagan bolalarni tarbiyalash, ularni bolog'atga erishishida qulay muhitni yaratish, to'g'ri yo'ldan adashmay katta hayotning oydin so'qmog'iga olib chiqishimiz dolzarb masala hisoblanadi. Xalqimizda "bir bolaga etti mahalla ota-ona" degan naql bor. Shu ma'noda bola asosiy vaqtini oilada va maktabda o'tkazsa-da, uning tarbiyasi uchun faqat ota-ona va o'qituvchi mas'ul deyishimiz noto'g'ri. Farzandlarimizni qadriyatlarimiz ruhida, ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralar, illatlar iskanjasiga tushib qolishdan asrash barchamizning ertaga qoldirib bo'lmaydigan, loqaydlik qilinsa kelajak kechirmaydigan vazifamizdir.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning ko'chayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari,

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 176-б.

malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatlari kundalik hayet ehtiyejga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi.

Ta'kidlaganimizdek, oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yasli, bog'chalarga bormay, faqat oilada o'sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o'z tengqurlari ichida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma'naviy g'amxo'rligini, ko'rsatayotgan tarbiyasini yasli, bog'cha tarbiyasi bilan yeki, aksincha, yasli bog'cha tarbiyasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Faqat o'zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

Lekin o'zining xususiyatlari va takrorlanmas ta'siri bilan oila bola tarbiyasida muhim omilligicha qoladi. Amaliyotda kuzatganimizdek, bolada ota-onasining mehri, erkalashlari asosida ota-onalariga, qarindosh-urug'lariga bo'lgan hissiyatlari shakllanadi. Bolaning otasiga bo'lgan hurmati onaning hurmatini joyiga qo'yishda asos bo'ladi. Onaga bo'lgan mehr-muhabbat oqibat natijada o'z oilasiga, xotini, farzandlariga bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Ikkinchi tomondan bolalar ham o'z ota-onalariga ta'sir ko'rsatadilar. Oilaviy aloqalarni oilaviy qiziqish, ma'naviy qoniqish hislatlarini takomillashiga sabab bo'ladilar.

Ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillaridan biridir. Bunday birlikning ro'yobga chiqishida, eng

avvalo, ota-onalarning siyosiy ongliligi muhim rol o'ynaydi. Chunki ota-onalarning faolligi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda bolalar o'z ota-onalarining siyosiy va fuqarolik qiyofalariga qarab o'z xulq-atvorlarini tartibga soladilar, hurmatlarini joyiga qo'yadilar.

Bolalar ulg'aya boshlashi bilan oq o'z ota-onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimiga qiziq boshlaydilar. Shuning uchun ham ota-onalarning nimalarga qiziqishlarini, kimlar bilan safdosh ekanliklarini bolalar mumkin qadar ertaroq bilganlari ma'qul. Ota-ona qanday ishda bo'lmasin uni jiddiy, el hurmatiga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Bu borada oiladagi tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik ma'lum darajada maktabga yuklanadi. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotning roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy-ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ommaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, birinchidan, bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yeshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. Ikkinchidan, ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yoru do'stlarining ma'naviy xayotlaridagi omillarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday toifa oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho

beradilar. To'plangan tajribalarni yasli, bog'cha, maktabdagi o'rtoqlari bilan muhokama qiladilar va hokazo.

Kurs ishining maqsadi: Hozirgi davrda bolalarning oilalardagi tarbiyasi masalalarini ochib berish.

Kurs ishining vazifalari: Ilmiy adabiyotlarni tahlil etish va oiladagi ota-onalar burchlari va vazifalarini muammo ekanligini asoslab berish.

Kurs ishining ob'ekti: oilalardagi ota-onalarning bola tarbiyasi jarayoni.

Kurs ishining metodlari: oiladagi bolalar tarbiyasiga doir adabiyotlar tahlili, so'rovnoma, ko'zatuv, anketa.

Kurs ishining tuzilishi: Kirish, 2-bob, hulosasi va foydalangan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I-bob. Sogʻlom bolaning shakllanishida ota-onalarning vazifalari .

I.1. Sogʻlom bola maʼnaviyatini shakllanishiga taʼsir etuvchi omillar.

Mamlakatimizda barcha sohalarda boʻlayotgan islohotlar, ijtimoiy oʻzgarishlar, maʼnaviy-maʼrifiy yoʻnalishlarda ham oʻz aksini topmoqda. Oʻzbekistonda odob-axloq ilmiga, maʼnaviyat masalalariga katta eʼtibor berilmoqda, ayniqsa yoshlarning maʼnaviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejis emas. Eng quvonarlisi shundaki, Prezidentimiz I.Karimov yoshlarning maʼnaviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida eʼtibor berib kelmoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi-mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va halq maʼnaviyati bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularning uygʻun rivoji taʼminlansagina Oʻzbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida oʻz munosib oʻrnini topa oladi.

Oʻzbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulugʻlarimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga daʼvat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi boʻlib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, isteʼdodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni maʼnaviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, ragʻbatlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir. Yurtboshimiz taʼkidlaganlaridek: “Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oʻrtaga qoʻyilgan maqsadlarga erishish oʻzlariga bogʻliq ekanligini, yaʼni bu narsa ularning sobitqadam gʻayrat-shijoatiga, toʻla-toʻkis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bogʻliq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir”. Shu boisdan ham kelajak borasida amalga

oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat, e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir fuqaroning burch va vazifalari hisoblanadi. Mazkur holatda eng avvalo, yoshlarimiz ongida ma'naviyat va ahloqiylik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalashimiz zarur bo'ladi, ya'ni yoshlar tarbiyasi sohasidagi siyosatni keng jabhada olib borilishi jumladan, oiladagi tarbiya poydevorini ta'lim maskanlarida ham uyg'un ravishda mustahkam qo'yilishiga e'tibor qaratilish kerakdir.

Yoshlar jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday voqealarga o'zgacha, ruhiy his-kechinmalar doirasida munosabat bildiradilar, qiyinchiliklar vujudga kelganda esa ehtirolarga beriladilar. Shuning uchun bizning oldimizda turgan muhim masala – yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, bunda oiladagi tarbiya bilan birgalikda jamoatchilikning uzviy hamkorligini ta'minlash taqozo etiladi.

Biz psixolog olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida oilaning ta'sirini ular ongida aks etganlik darajasini o'rganish maqsadida “Qanday oilalarda ma'naviy sog'lom farzandlar tarbiyalanadilar?” degan savolnoma bilan tanishib chiqib olingan natijalarini o'rganganib chiqdik va juda ham qiziq ma'lumotlarga duch keldik. Masalan, oliygohda tahsil olayotgan talabalarga murojaat etilganda. Olingan natijalar shuni ko'rsatgan. “Qanday oilalarda ma'naviy sog'lom farzandlar tarbiyalanadilar?” (% da)

Javoblar:	%
Mehnatkash va halol oilalarda	50,7
Inoq va tinch oilalarda	38,9
Ma'naviy sog'lom oilalarda	37,8
Ziyoli oilalarda	21,3
Ko'p bolali oilalarda	3,9

Dindor oilalarda	3,3
Boshqa javob	1,0

Jadvalda kuzatiladigandek, aksariyat yoshlarimiz mehnatkash, halol, inoq, tinch, ma'naviy sog'lom oilalarda ma'naviy etuk farzandlarning voyaga etishi va tarbiyalanishini ma'qul deb olganlar. Biz yoshlarning yaxshi oilaga nisbatan psixologik ustanovkalari yuqori ekanligini bilib oldik. Shuningdek qaysi ijtimoiy ta'sir shaxsning ma'naviyatiga ta'siri qanday bo'lishini ham qay darajada o'rganilganligi bilan qiziqqanimizda shunday tadqiqotlarga duch keldik. Talaba-yoshlarga psixolog olimlarimiz tomonidan "Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda inson ma'naviyatiga nima eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?" savolini berilgan. Unga ko'ra olingan javoblarda oila barcha ijtimoiy maskanlar orasida eng yuqori darajada shaxs ma'naviyatiga ta'sir etishi tan olingan. Shuning uchun oila maskani, uning ma'naviy muhiti, unda voyaga etayotgan farzandning jismoniy sog'lom bo'lishi, ma'nan yuksak bo'lishi, aqlan kamolga etishi masalalari doimo jamiyat miqyosida eng muhim masalalardan biri ekanligini ham angladik. "Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda inson ma'naviyatiga nima eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?" (% da)

Javoblar:	%	Televidenie	28,1
Oila	77,1	Matbuot	7,2
Mahalla	43,2	Din	6,8
Ta'lim muassasasi	43,1	Adabiyot	3,4
Ijtimoiy muhit	36,9	Kino, teatr	2,2

Demak, shaxs ma'naviyatini shakllantiradigan omillar orasida oila va oilaviy tarbiya, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi maskanlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri yuqori ekan-da.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov barkamol shaxsni shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida gapirar ekanlar, «Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida

tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo`ymoqda», deb alohida ta`kidlaydilar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo`lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo`lib o`z yurti va halqiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o`rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o`z Vatani manfaatlariga g`oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

Hammamizga ma`lumki mustaqil Ona Vatanimiz - O`zbekistonning kelajagi biz yoshlarning qo`lidadir. Shu sababdan ham biz talaba yoshlar bizga berilayotgan har qanday imkoniyatlardan to`liq foydalanib, ilm olishga, o`z bilim, ko`nikma va malakamizni yanada kuchaytirishimiz lozim. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek, «Biz bugun yosh avlod tarbiyasiga har qachongidan ham katta ahamiyat bermoqdamiz. Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz - bu o`sib kelayotgan yosh va sog`lom avlodimizdir».

I.2. Sogʻlom bola tarbiyasida ota-onaning roli.

Odam paydo boʻlgandan boshlab tirikchiligi, qorni toʻq, egni but boʻlib yashashi uchun harakat qilgan. Astoydil xarakati va unumli mehnati tufayli yashash turmush tarzi yaxshilanib, oilasi mustahkamlanib borgan. Bu barcha uchun aniq va sinalgan haqiqat. Bu borada ayniqsa jamiyatda oila mustahkamligiga erishish uchun nima qilish kerak?- degan savolga javob berishimiz lozim.

Borliqning erkasi hisoblanmish odamzotning hayotdagi eng katta kashfiyotlardan biri oilaviy turmush desak, bu mubolagʻa boʻlmas. Insoniyat hayotini, turmushni, ayni vaqtda jamiyatni oilasiz tasavvur qilish amrimahol. Tabiatning ulugʻ birliklaridan sanalgan oilada amlaydigan tomonlardan biri mehr-muhabbat, oʻzaro hurmat va sadoqatlilikdir. sir-sinoat moʻl. Oilani mustahkamlash, asrab-avaylash hayotday zarurdir. Oilani mustahkOiladagi er-xotin muhabbati, ular oʻrtasidagi sadoqatda xislat katta, karomat moʻldir. «Agar,-deydi yurtboshimiz Islom Karimov — oila sogʻlom va mustahkam boʻlsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam boʻlsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi». Bola tugʻiliboq oʻz onasi va otasini koʻradi. U oʻzining dastlabki muloqotini ota-onasi bilan boshlaydi. Buning uchun oiladagi psixologik muhit, oila aʼzolari oʻrtasida bir-birlariga hurmat boʻlishi bola tarbiyasiga katta taʼsir etadi.

Donishmand xalqimizda bu borada qator ibratli hikmatlar mavjud. Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysi biriga koʻnikib, oʻrganib qolsa, bu koʻnikma uni bir umr tark etmaydi.

Xalqimiz bejizga "Qon bilan kirgan-jon bilan chiqadi, «Yoʻrgakda tekkan kafanda ketar», «Onasini koʻrib, qizini ol», "Qush uyasida koʻrganini qiladi", «Dard ketar, odat qolar» deyilgan naqlarni aytmagan.

Mamlakatimizning jahon miqyosida tutgan oʻrni, uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, fan va madaniyat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi xalqimizning turmush darajasi bilan belgilanadi. Turmush darajasining asosiy negizi esa oiladir. Jamiyat maʼnaviy va ahloqiy jihatdan sogʻlom, mustahkam oila boʻlishidan manfaatdordir. Shu sababli oilani mustahkamlash, bolalar tarbiyasi,

shuningdek, ularning turmush sharoitini yaxshilash, davlat ahamiyati darajasida qaralmoqda.

«Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish xuquqiga ega» - deb belgilab qoʻyilgan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida. Maʼnaviy boy, ahloqan etuk, intellektual rivojlangan, chuqur bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxs ham, avvalo sogʻlom turmush tarzi qaror topgan oilada shakllanadi.

Oilada esa oʻzbek xalqining ming yillar davomida mustahkamlanib kelgan maʼnaviy ildizlari mujassamlashgan boʻladi. Oʻzbek xalqi boy madaniyatiga ega boʻlgan qadimiy xalqlardan biridir. Uning bagʻriga jo boʻlgan maʼnaviy xazinalarning qadr-qimmati bu yurtning soʻlim tabiati, hosildor tuprogʻi, er osti va er ustki boyliklaridan kam emas.

Sogʻlom oila va sogʻlom ota-onadan sogʻlom farzand tugʻiladi va voyaga etadi. Bola dunyoga kelgandan soʻng, ota-bobolarimizdan qolgan udum-uning qulogʻiga bir mulla chaqirtirilib, aʼzon aytiladi. Buning bilan uning ismi ilk bor oʻzining qulogʻiga singdiriladi. Ota-onalarning farzandlariga munosib ism qoʻyishlari ham qarz, ham farz. Toʻgʻri ism qoʻyish ularning farzandlari oldidagi birinchi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shuningdek, bolaning qoʻlini halollab, boshini ikkita qilish kerak ekanligini sizlar ham koʻp maratoba eshitgansizlar. Shuning uchun xalqimizda «Ota boʻlish oson-Otalik qilish qiyin» degan naql bor. Otalar maslahati bilan tuzilgan ishlar pishiq va mustahkamdir. Otalar «otaligi» uchun emas, balki komil farzand tarbiyalaganliklari uchun ulugʻlanadi.

Bu omillar oilada bolaning maʼnaviy-ahloqiy tarbiyalanishining mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni oʻz ichiga oladi. Oilaviy tarbiyaning oʻziga xos xususiyatlarini taʼsir qilish omillarini hisobga olmasdan turib, bola tarbiyasini oilada yaxshi yoʻlga qoʻyish mumkin emas. Buning uchun, avvalo, ota-onalar va tarbiyachilarning oʻzlari tarbiyalangan boʻlishlari lozim.

II-bob. Oilada farzand tarbiyasiga qo'yiladigan zarur talablar.

II.1. Ota-onaning va farzandlarining oiladagi forizi haqida.

Mamlakatimizda bolalar va onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. «Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga» shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bolmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Oilalarning bolalar tarbiyasi uchun imkoniyat doiralari ancha keng bo'lib, ko'plab oilalarimiz moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan. Ota-onaning ko'pi eng kamida o'rta ma'lumotli. Bunday holatlar ota-onalarning pedagogika, psixologiya sohasidagi bilimlar bilan qurollanishiga va maktab bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Ota-onalarning bilim saviyasi, umumiy tarbiyaga oid madaniyati, ijtimoiy intilishlari va talablari, bolalar tarbiyasiga nisbatan turlicha munosabatlari, shakllangan hayetiy tajribalari, tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot natijasida hosil qilgan ishonch va e'tiqodlari, oiladagi o'ziga xoslik bolalar tarbiyasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Ko'plab qishloq oilalarida ma'lum darajada bolalar tarbiyasi yuzasidan jamoatchilik yerdami mavjudligiga qaramasdan tarbiyaviy kuchlarning bir butunligiga erishilmagan, o'zaro hamkorlikni qanday tashkil etish mumkinligi haqida ma'lumot yetarli emas. O'qituvchilar ham sinf ota-onalar majlisining o'tkazilishi maktab va oila hamkorligini ta'minlaydi, deb o'ylashadi. To'g'ri, ota-

onalar majlisi ham hamkorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan hisoblanadi, lekin oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi uchun, ularni birlashtirish uchun maxsus tashkil etilgan markaz bo'lishi lozim.

Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kiritadi. Bunday maktablar esa o'z atrofidagi zavod, fabrika, jamoa va davlat xo'jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o'quvchilarning maktabdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi og'ir bolalarni o'z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko'plab ota-onalar maktab bilan yaqindan aloqada bo'lib o'quvchilar tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda.

Lekin, ko'plab ota-onalar bolalar tarbiyasiga tayyor emasliklari, ularga ta'sir etuvchi turli omillardan bexabarliklari, bola kamolotining murakkab tomonlarini bilmasliklari natijasida oilaviy tarbiyada ko'plab ko'ngilsiz voqealar ham sodir bo'lmoqda. Bunday salbiy omillar o'g'il yoki qizlarning maktabdagi ta'lim-tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Voyaga yetmagan yeshlar orasida qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklari haqida zamon talabi darajasida tarbiyaviy mas'uliyatni his qilmayaptilar. Ota-onalar bilan suhbatlashish natijasida shu narsa aniqlandiki, ular farzandlari 15-16 yoshga yetganidagina «O'g'lim yoki qizim yuqori sinfda o'qimoqda. Kelajakda qayerga yuborsam ekan, qayerga o'qitsam ekan» degan fikrga boradilar. Imkoni boricha, tanish-bilish orqali o'zlari uchun ma'qul dargohga o'qishga yoki ishga joylashtirmoqchi bo'ladilar. Ular bolalarining qobiliyatiga ham, qiziqishiga ham, xohishiga ham e'tibor bermaydilar. Bunday holat ota-onalarning tarbiya masalasida aniq maqsad va dasturlari yo'qligi oqibatida sodir bo'ladi.

O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi.

Respublikamizda ayrim maktablarda ota-onalarni ma'lum guruhlariga bo'lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalarni alohida, noto'liq oilalarni, ko'p bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yo'llari belgilanmoqda.

Ba'zan ota-onalar bolalarining «uy vazifalariga yordam berish kerakmi» degan savolni berishadi. Bunga «ha» yoki «yo'q» deb javob berish ham noo'rin. Gap shundaki, uyga berilgan topshiriqlar bolalarning mustaqil ishlari bo'lib, ularning fikrlash faolligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarning u yoki bu o'quv materiallari bilan amalda tanishishlari, tegishli xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi. Shu sababli uy vazifalarini bolalarining ishtirokisiz o'zlari yechib bermasdan, balki uni yechishda tarbiyaviy rahbarlik qilishlari, fikrlash uchun imkoniyat yaratishlari lozim. Ba'zan shunday holatlar uchraydiki, ota-onalar bolalarini o'qitayotgan o'qituvchilarni, tarbiyachilarni tanimaydilar, bilmaydilar. Bolalari bo'sh vaqtlarini qayerda, kim bilan o'tkazishidan bexabar bo'ladilar. Ba'zan esa, o'qituvchilarning talablari, iltimos-istaklariga ters javobberuvchi, teskarisini bajaruvchi ota-onalarni ham uchratish mumkin.

Maktabga tez-tez borib turuvchi ota-onalarning faoliyati maqtovg'a sazovordir. Chunki o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlar, bolalari yuzasidan bildirgan fikrlar o'z navbatida ota-onalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, ular bolalari qayerda, kim bilan yuradi, ularning do'stlari kim va qanday fanlarga qiziqishlarini bilib oladilar, nazorat qilish imkoniyati ortadi.

Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita - bu o'quvchilardir. O'quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy duneqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga

muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, «Bolangizning qanday o'qishini bilasizmi», «Bolalarimiz odobi haqida suhbatlashaylik», «Mustaqil hayot bo'sag'asida» kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni o'z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg'urishlariga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi mas'uliyatli vazifalarning bajarilishida sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi shu oilaga va ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashlari, sinf rahbarining o'quvchilar ko'z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan suhbatidan keyin hquvchilar hayetida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi, bu ularni xursand qiladi, yanada kuch-g'ayrat sarflashga ilhomlantiradi. O'z navbatida, sinf rahbarlari ota-onalar tomonidan bildirilayotgan xabar. Tanqidiy fikrlarini vazminlik bilan tiklashlari, iuloyimlik bilan eshitishlari va imkoniyat doirasida ijobiy his etishlari juda muhimdir. Bunday munosabatlarda sinf rahbarlariga ota-onalarni o'z tengqurlaridek do'st tutishlari, «Keling birgalikda o'ylab ko'raylik, O'zingiz nima deysiz» kabi do'stona savol-javoblar orqali ish tutishlari tavsiya etiladi.

Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutganda oilaning ikki sarkon — ota bilan onaning ma'naviy-ruhiy odobi, o'zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko'r-ganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tajriba va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo'lib o'sishida aks ettiruvchi ko'zgudek muhim o'rin tutadi. Bundaodamlarning: „Siz kimning farzandisiz?“ deb so'rashlarida, u inson qaiiclay tarbiya ko'rganligini bilish maqsadi yotadi.

Xalqimizda „Qush uyasida ko'rganini qiladi“. „Bolani yoshdan, tuholni boshdan asra“, „Erkalasa onasi, taltayadi bolasi“, „Bola aziz - odobi undan aziz“ kabi naqlar borki, ularning izini chaqadigan bo'lsak: farzandlarning qay tariqa

tarbiya kirnh, o'sib, voyaga yetishi, fe'l-atvorining qanday bo'lib shaklla-nislu, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday usul bilan larbiyalashiga, o'zlarini qanday tutishiga, ibrat ko'rsatishiga, ijobiy yo salbiy ta'sir etishiga bevosita bog'liqdir, degan ma'no-maqsad kelib chiqadi.

Ota-ona bolaga yoshligidan hayotda yashash nima ekanini. mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo'lmasligini, biror kasb-hunar egasi bo'lmasa, hayotda ko'p qiyinchiliklar ko'rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo'lini bilmay qoqila-di, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi. bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo'l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-ona bolani kichikligidanoq axloq-odobga o'rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko'zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir.

Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o'ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat'iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mum-kin, chunki har bir bola — bir olam, ular har birining o'ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro'-e'tibori muhimdir. Ota-ona qat'iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko'rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo'lishi nuihimdirki, bu yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalar oilada tabiiy ravishda, miintazam qo'Hansa, juda yaxshi natijaiar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat — namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan

vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishon-tirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Maqsad aniqligi tarbiyaning asosidir, to'g'rirog'i, u tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Demak, oliy maqsad — yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, yaxshi urf-odatlarimiz va oilaviy an'analar ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun oliyjanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli, bir so'z bilan aytganda, komil insonni yetishtirishdir. Xo'sh, komil inson tarbiyasida biz nimalarga e'tibor berishimiz zarur.

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota-ona, oiladagi katta-yu kichik, hamma biryoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hammada yakdillik bo'lishi lozim. Odatda, ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilig'ini buvisi maqtasa, shu qilig'i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beqarorlik va kelishmovchilikni sezgan bola mug'ambirlik, aldamchilik, tilyog'la-malik, xushomadgo'ylikka o'rganadi.

Bolani aql (talabchanlik) bilan sevganda, lining qiziqishlariga diqqat-e'tibor berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzand o'z navba-tida ota-onasini mehr bilan sevadi, ular to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bu ajablanarli hoi emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko'rsak,

ulaming ruhiyati, ichki dunyosi, atrof-muhitga muno-sabati ham shu tarzda tarkib topa boradi.

Hayol tajribasi Shuni ko'rsatadiki, ba'zi ota-onalar bolaning hamma talab-ehtiyojlariga haddan tashqari e'tiborli bo'lib, barcha injiqlik va o'larliklarini ko'tarishga intiladilar. Bunday bola kelajakda iiosluid bo'lib o'sishdan tashqari, katta bo'lganda to'g'ri-noto'g'ri flkrni oclamlarga zo'rlab o'tkazadigan, yomon xulqli, jamiyatga zararli kishi bo'lib qoladi.

Ota-ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka-ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lishiga olib keladi. bola oldida ota-onaning obro'si, hurmatini oshiradi, o'z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishga, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishgao'rgatadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, ba'zida bir ota, bir onadan tug'ilib, bir oilada katta bo'lgan bolalar ko'pincha fe'l-atvorjihatidan bir-birlariga hech o'xshamaydilar. Biri mo'min-qobil, gapga quloq soladigan bo'lsa, boshqasi sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan bo'ladi. Bunday holatda kattalar ulaming har biriga, o'ziga qarab muomala qilishlari, birini ikkinchisidan ortiq ko'rmasliklari lozim. Bilaks, bu qarash har ikki bolaning tarbiyasiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Buni unutmazlik kcrak.

Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtni qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi.

Bolaga munosabatda, birinchi navbatda, uning yoshini hisobga olish kerak. Bolaning o'sish bosqichini uning yoshiga nisbatan quyidagicha belgilash mumkin: uch yoshgacha; uchdan yetti yoshgacha; yettidan o'n yoshgacha; o'ndan o'n to'rtgacha; on to'rtidan o'n sakkiz yoshgacha.

Uch yoshgacha bo'lgan bolada jismoniy-ruhiy belgilar rivojlanadi. Bu davr bola hayotidajuda mas'uliyatli davrdir. Kichkina vujudning risoladagidek o'sishi, ya'ni ovqat eyishga, yurish va gapirishga o'rganishi mana shu davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ota-onalar bu davrda bolagajuda hushyorbo'lishlari kerak. Bola tana

a'zolarining to'g'ri rivojlanishi, aniq-ravon so'zlashga o'rganishi, yaxshi-yomon narsalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilishi, ota-onalarning e'tiboriga bog'liq.

II.2. Oilada Vatanparvarlik sezimlarini tarbiyalash masalalari.

Hozirgi zamon oilalarning tarbiya jabhalaridagi umumiy va xususiy tomonlarini, vazifalarini bilish nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki bir bolalarning bog'cha va maktabda olayetgan bilimlarini, aqliy qiziqishlarini hisobga olganimizdagina oilaviy tarbiya ishi samaradorligini ta'minlashimiz mumkin. Biz tarbiyaviy vazifalarimiz xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalar kamolotiga yakka holda yendashish, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiya ehtiyejini shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasi, maishiy mehnat, ietimoiy mehnatga ma'naviy-ruhiy tayyerlash kabi mezon va qoidalarni hisobga olib ish tutishimiz ijobiy maqsadga muvofiqdir. Bunisiz tarbiya jarayenini ijobiy hal qila olmaymiz.

Oiladagi tarbiyaviy jabhalarning saviyasi uning tuzilishiga, ko'p bolalik yeki kam bolalik, ikki yeki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onaning mavjudligi yeki ulardan birortasining yo'qligi, har ikki jinsdagi (o'g'il-qiz) bolalarining borligiga, ota-onalarning ma'lumot saviyasiga, oila a'zolarining ijtimoiy ahvoliga, bolalar tarbiyasi bo'yicha o'z burchlarini his etishlari, er va xotinning tarbiyaviy jabhalarga munosabati kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini anin'lashda oila tuzilishining milliy o'ziga xosligini aniqlashda oila tuzilishining milliy o'ziga xosligini va milliy an'analardan foydalanish darajasini hisobga olish lozim.

Bolalar tarbiyasi oilaning insonni bunyod etuvchi tabiiy va ijtimoiy moxiyati bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shu ma'noda tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra shunday bir jarayenki, u tarbiyalanuvchining biologik, ijtimoiy ehtiyej turlarini, o'zining qadri, qiziqish va g'oyalarini jamiyat talablariga bo'ysundirishda namoyet bo'ladi.

Bola oilada, maktabda, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yeshdagilar, o'rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

Oilalarda bolalarga tarbiya berishda ota-onaning namunasi, ularning mehnatsevarligi, oilaviy ishlarga javobgarligi, ish yuritishi, o'g'il bolalarga nisbatan otaning, qizlarga esa onaning ustozlik, rahnamolik ishlari asosiy o'rinni egallaydi. Bu fikrlar oilalarda o'tkazilgan anketa ma'lumotlari yordamida aniqlandi.

Anketa mazmunida quyidagi savollar bor edi.

1. Familiyangiz, ismingiz, otangizni ismi, tug'ilgan yilingiz, ma'lumotingiz, kasbingiz va adresingiz.
2. Oilangizda necha farzandingiz bor.
3. Sizning sevgan mashg'ulotingiz.
4. Bolangiz sevgan mashg'ulotlarni sanab bering.
5. Oilangizda farzandlaringiz mashg'uloti uchun qanday sharoitlar mavjud. Maxsus xona, stol, stul, kitob shkaflari, radio va boshqalar.
6. Bolangizni tarbiyalashda qiynalyapsizmi. Ha yeki yo'q.
7. Sizningcha oila tarbiyasini nima qiyinlashtiryapti. (Tarbiyaga oid bilimlarning yetishmasligi, ota-onalarning bemaslahat ish olib borishi, bolalarni ish bilan band etmaslik, yeshiga, qiziqishlariga qarab muomala qilmaslik, xo'jalik ishlarining bajarilishida ishtirok etmasligi va hokazo).
8. Siz tarbiya ishida uslublar zarur deb hisoblaysizmi. Ha yeki yo'q. Bir kunda necha soat bola tarbiyasi bilan shug'ullanasiz.
9. Oilangizda bola tarbiyasi bilan kim ko'proq shug'ullanadi, bobosi, buvisi, onasi, otasi, akasi, opasi va boshqalar.
10. Siz ko'proq nima tufayli bolangizga tanbeh berasiz, jazolaysiz, kelisha olmaysiz.
11. Siz va bolalaringizning kelajak haqidagi qarashlarida qarama-qarshilik mavjudmi. Fikrlaringiz to'g'ri keladimi. Ha yeki yo'q.
12. Bolangiz nima sababdan u yeki bu noo'rin xatolarga yo'l qo'yishi hollariga e'tibor berasizmi. Ha yeki yo'q. Sababini surishtirmay jazolaysizmi. Sababini hisobga olasizmi.
13. Oilangizda o'z-aro munosabatni qanday baholaysiz.
14. Qizingiz yoki o'g'lingiz haqida kimlardan ko'proq ma'lumot olib turasiz. Kishilardan, jamoatchilikdan, o'qituvchilardan yeki boshqalardan.
15. Tarbiyaga oid adabiyotlarni, ro'znoma va oynomalarni muntazam o'qib borasizmi. Tarbiya ishlari haqidagi qanday gazeta va jurnallarga obuna bo'lgansiz.

16. Tarbiyaga oid oynai jahon ko'rsatuvlarini tomosha qilasizmi. Eshittirishlarni muntazam eshitasizmi.

17. Oilangizda bolalaringizga ertak, maqol, topishmoqlar aytib berasizmi.

18. Shu o'quv yilida necha marta va nima sababdan maktabda bo'ldingiz.

19. Nеча marta va qanday maqsad bilan sinf rahbarlari uyingizda bo'ldi. Har oyda necha marta sinf rahbari siznikiga keladi.

20. Bolalarning o'zlashtirishi va tarbiya sifatlarini yaxshilash uchun qanday maslahat berasiz.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda tarbiya imkoniyatlari ko'r va rang-barangdir.

Yoshlarni oilaviy hayotga, nikohga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta'minlashda nikohlanuvchilarning ota-onalari saviyasiga, turmush tarziga, xarakter xususiyatlariga va nihoyat, kasb faoliyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Oila xo'jaligida mehnat taqsimoti eng qadimiy va madaniy ijtimoiy bir holdir. Hozirgi kunda esa, shahar va qishloq oilalarida er va xotin o'zaro mas'uliyatli ishlarni bo'lishib olishning ko'plab turlarini vujudga keltirishdi. Aniqroq qilib aytganda, barcha oilaviy ishlarni bajarishda teng huquqlilik yo'nalishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, bu bolalar tarbiyasi vazifasining bajarilishida ko'proq namoyen bo'lmoqda.

Bola tarbiyasiga ko'p vaqt sarf qilinadi. Lekin oilada tug'ilgan yakka farzand kattalarning jonli o'yinchog'i, seviklisi, kattalarning diqqat markazi, quvonchi va erkatoyi sifatida voyaga yetadi. Uning biron narsadan noroziligi va yig'isi ota-ona dunesini qorong'ilashtiradi. O'zlari yemay-ichmay, yakka farzandlarini oq tarab, kiyintirib, hatto turli-tuman sovg'alar uyushtiradilar. Bu bilan bolasining kelgusi taraqqiyetini buzayetganliklarini o'yoashni ham yeqtirmaydilar.

Bolaning to'g'ri o'sishi, odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, ularning qayg'ulariga hamdardlik ko'rsatish hissi tarkib topishi uchun oilada hech bo'lmaganda o'ziga o'xshash yana bir kishi (qizmi, o'g'ilmi) bo'lishi zarurdir.

Oilada kamida ikkita farzandning bo'lishi faqat ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yaxshilabgina qolmasdan, balki jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyejlariga ham mos keladi.

Ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan bolasizlik yeki kam bolalik oila mustahkamligini ta'minlamaydi. Mamlakatimizdagi oilaviy ajralishlarning aksariyati yeki bolasi yo'q, yeki kam bolali oilalarga to'g'ri kelmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ota-ona yakka farzandning tarbiyasiga nihoyatda ko'p vaqt ajratadi, lekin ko'p hollarda salbiy natija ko'rishadi. Oilada yakka farzand tarbiyasidagi kamchilik natijalari bola o'smirlik yeshiga yetganida birdan yuzaga chiqadi, va, nihoyat, bu kamchilik o'smir o'sib, ulg'ayib, o'zi oila qurganda yanada yaqqolroq namoyen bo'ladi.

Oila tarbiyasida sharoit, ya'ni ularning qishloq yeki shaharda yashashlari ham bolalar tarbiyasiga u yeki bu darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda, qishloq sharoitida yashovchi oila farzandlari yeshligidan boshlab kuchi yetadigan ishlarga jalb etiladi, ya'ni ular uy yumushlarini bajarish, uy hayvonlarini parvarishlash, ularga yem, suv berish, ota-onalariga dalalardagi hosilni, poliz ekinlari, mevalarini yig'ib-terib olishlarida yaqindan yerdam berishadi. Qizlar esa uy yumushlarini, ya'ni tozalash, ovqat pishirish, xamir qorish, nrn yepish va hokazo mashgulotlarni jon-dilidan bajaradilar. Shahar oilalaridagi sharoit ulardan tubdan farq qiladi. Ozchilik bo'lsa-da shahar oilalarining bolalari maktabning turli jonli burchaklarida, tajriba ishlarida, daraxtlarni parvarish qilishda ishtirok etishadi. Lekin bu ishlarni ota-onalarining ishtirokisiz, har zamonda bajaradilar. Natijada bekorchilik kuchayadi yeki sport maydonchalaridan beri kelishmaydi, shahar bo'ylab sang'ib yurishadi.

Ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi

Ziyoli va xizmatchilar oilasining qishloqda yeki shaharda yashashlariga qarab bolalariga beriladigan tarbiyada ham birmuncha farqlar mavjud. Shaharlarda yashovchi ko'p bolali ziyeli yeki xizmatchi oilalaridan farqli o'laroq qishloqlardagi shu toifadagi oilalarda bolalar siyesiy, madaniy-oqartuv ishlaridan tashqari ota-onalari ham, bolalar ham xo'jalik dalalarida, bog' va polizda mehnat qiladilar.

Qo‘lidan ish keladigan barcha yeshlar ota- onalari yenida muntazam mehnat qilish bilan band bo‘ladilar, jismoniy mehnatga nisbatan tayyar bo‘lib voyaga yetadilar.

Tarbiyaning samaradorligi oiladagi bolalar mehnati, ularning uy xo‘jaligidagi faol ishtiroki, shuningdek, oilaviy turmush sharoitlari bilan belgilanadi. Qishloq oilalaridagi tarbiya o‘zining strukturasi va mazmuniga ko‘ra ishchi, xizmatchi va ziyeli oilalardan tubdan farq qiladi. Ayrim holatlarni hisobga olmaganda qishloq oilalari bolalari yilning deyarli barcha fasllarida ham mehnat faoliyatiga tortilgan bo‘ladi.

Ko‘p bolali dehqon oilalaridagi tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, bunday oila bolalar jamoasining markazi, asosiy tarbiya vositasi esa ota-onaning namunasi, ularning xulqi, odobi, bir-birlariga bo‘lgan iliq muomalalari, oiladagi, ishlab chiqarishdagi aktiv jismoniy mehnatlaridir.

Bolalar nutqi shakllanishi, rivojlanishi asosida ularni kattalarga hurmat, do‘stlik, insoniylik, halollik kabi odob qoidalariga o‘rgatib boriladi. Shu asosda oilada kundalik ish davomida bolalarda xulq-atvor mezonlarini qaror toptirib boradi. Xuddi ana shu xulqiy mezonlar asosida keyinchalik axloqning murakkab shakllari – jamoatchilik, vatanparvarlik, hayetning ijtimoiy-siyosiy tomonlariga qiziqishning dastlabki shakllanish jarayeni davom etadi. Oiladagi axloqiy tarbiya faqat xulqni tarbiyalash bilan cheklanmasdan, balki barkamol inson axloqini to‘g‘ri tasavvur qildiradi, uning tarkibi, ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Mana shu asosda oila a‘zolarida inson xarakteri, hayet bosqichlari qaror topadi. Oilaviy hayetning o‘ziga xosligi ham mana shunda.

Hozirgi zamon ko‘p bolali oilalarda o‘sib kelayetgan yesh avlodni har tomonlama tarbiyalashning barcha vositalari, shakl va uslublaridan amalda unumli foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda ota-onalar hal qilishlari nihoyatda zarur bir qancha tarbiyaviy muammolar mavjud. Bunday muammolar noto‘liq oilalarda nisbatan ko‘p bo‘lib, ular bolalarning ruhiy kamolotida namoyen bo‘lmoqda. Ota-onalar esa har doim ham bu holatni bilib, to‘g‘ri tushunavermaydilar. Ba‘zan esa bolalar ham aqli yetadigan masalalar bo‘yicha kattalarga murojaat etmasliklari, masalani ijobiy hal

etmasliklari natijasida onalari yeki katta yeshdagi kishilar hayetini, turmushini mushkul ahvolga solib qo'yadilar.

Umuman olganda hamma oilalar tarbiyasi uchun yaroqli umumiy formula topish mumkin emas, lekin bolalar tarbiyasi bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar asosida oilaning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, kelajakda kutilish mumkin bo'lgan tarbiya natijalarini hisobga olib, bir necha omillar haqida maslahat berish mumkin. Masalan, bolalar tarbiyasida oilaviy muhit maxsus ta'sir kuchiga ega. Muhit deyilganda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bolalarga ta'sir ko'rsatish usullari, oilada mavjud bo'lgan boshqa shakl va uslublar yig'indisiga aytiladi. Oila muhitining mazmuni ota-onalarning, katta yoshdagi a'zolarining g'oyaviy-siyosiy ongliliklarida namoyon bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytish joizki, ota-ona bolaga yoshligidan hayotda yashash nima ekanini. mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo'lmasligini, biror kasb-hunar egasi bo'lmasa, hayotda ko'p qiyinchiliklar ko'rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo'lini bilmay qoqila-di, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi. bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo'l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-ona bolani kichikligidanoq axloq-odobga o'rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko'zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir.

Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o'ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat'iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mum-kin, chunki har bir bola — bir olam, ular har birining o'ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro'-e'tibori muhimdir. Ota-ona qat'iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko'rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo'lishi nuihimdirki, bu yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalar oilada tabiiy ravishda, miintazam qo'Hansa, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat — namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishon-tirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'bailantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga

o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.O'zbekiston 1992y
2. I.A.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod – siyosat, mafkura T. O'zbekiston 1993y
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xafsizlikka taxdid barkarorlik shartlari tarakkiyot kafolatlari T.O'zbekiston,1997y
4. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. «O'zbekiston Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi». T.«O'zbekiston» 1997y.
5. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch». Toshkent. 2008 yil
6. I.A.Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». Toshkent. 2009
7. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., «O'zbekiston»1997y.
8. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. T.«O'zbekiston» 1997y.
9. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi T.2014
- 10.Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU-2003
- 11.M.Pirmuhamedova. Pedagogik mahorat asosolari. T.: 2001.
- 12.Munavvarov A.K. “Oila pedagogikasi”.T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 1994.
- 13.S.G'ulomov v.b. Ta'lim tarbiya sifati va qirralari.T. 2000.
- 14.O. Musurmonova. “Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”. T. 1996.
- 15.Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tlegenov. Pedagogika. No'kis «Bilim»- 2009 j.
16. Sh.Shodmonova, M.Xoshimova, N.Fayzullaeva Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti, T. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008
17. O.Xasanboeva Tarbiyaviy ishlar metodikasi T. 1996
18. R.Mavlanova, B.Normuradova, R.Raxmonkulova Tarbiyaviy ishlar metodikasi T. «Fan» nashriyoti 2007
- 19.www.Ziyo.net
- 20.<http://www/uralrti.ru>.
- 21.www.bankreferatov.ru